IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA YER VA SUV MASALALARI

Abdumavlonov Umarjon Komiljon o'g'li
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Tarix fani yo'nalishi 1 kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar hukmronligida yer-suv masalalarining olib borilishi, Temur tuzuklarida ushbu masalaning bayon etilishi kabi masalalar muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar

Yer-suv, Temur tuzuklari, Boburnoma, qonun, Sardoba, quduq.

KIRISH

Yer-suv masalalarining ilk bosqichlari Temur tuzuklari orqali yuritilgan. Bu davlat harbiy-monarxik davlat bo‘lganligi uchun hamda armiya va aholining xizmat qiluvchi tabaqasi ko‘proq turk va turk-mo‘g‘ul urug‘laridan kelib chiqqan kishilar bo‘lganligi tufayli qadimgi turk huquqiy odatlari (to‘ralar) huquqning ikkinchi manbaini tashkil qilgan. Ayniqsa, davlat boshlig‘ini saylash, armiya va uning tuzilishi haqidagi qoidalar, suvdan foydalanish borasida ko‘plab huquqiy odatlar mavjud bo‘lgan. Keyinchalik «Tuzuklar» yozilganda, bu odatlarning, ayniqsa, harbiy qurilishga oid masalalari yozma qonunchilik bilan mustahkamlangan. Keyinchalik Temuriylar bu qoidalarga yangilik va qo`shimchalar kiritib borishgan. Boburnoma orqali ma`lumki, holat va hududlardan kelib chiqib keyingi davrlarda ham alohida qonun-qoidalar yo`lga qo`yilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

«Tuzuklar»da ko‘rsatilishicha, davlatni boshqarishda kengashish, maslahat hamda tadbirkorlikka katta ahamiyat berilgan. «Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilichdir», – deyiladi uning birinchi maqolasida. Amir Temur barpo etgan davlatning ikkinchi vaziri – qo‘shinlar vaziri bo‘lib, u askarlar (sipohiy)ga beriladigan maosh, xizmat evazigaberiladigan yer-suv yoki boshqa mulkni idora qilgan.

Temuriylar davlatining yadrosi hisoblangan Zarafshon vodiysi o‘sha paytda sersuv yerlari, bir-biriga ulanib ketgan bog‘lari, ekin maydonlarining ko‘pligi bilan mashhur edi. Bobur Mirzo Samarqandni Semizkent deb atashiga sabab bu hudud nafaqat siyosiy markaz, balki savdo-sotiq, hunarmandchilik markazi bo‘lishi bilan birga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ham mashhur edi. Buyuk ipak yo‘lining yuragi hisoblangan Samarqand o‘shapaytda quruq va xo‘l mevalari, don-dunlari va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ham mashhur edi. “Boburnoma” Samarqandning joylashish o‘rnini aniqlik bilan ko‘rsatib berar ekan, uning sug‘orish manbalari haqida ham ma’lumot berib o‘tgan: «Sharqi Farg‘ona va Koshg‘ar, g‘arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz, Ko‘hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh bo‘lg‘ay. Bu suy bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko‘hak derlar. Bu rud muning tubidii oqar uchun Ko‘hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug‘ rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg‘am suyi derlar, Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar’iy bo‘lg‘oy. Samarqandning bag‘ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma’murdur [1].

Buxoro va Qora ko‘lgachakim, o‘ttuz-qirq, yig‘och, yo‘lg‘a yovuqlashur, Ko‘hak suyi bila ma’mur va mazru’dur. Mundoq ulug‘ daryo aslo ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch- to‘rt oy

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

Buxorog‘a suv yetmas.

Bobur Mirzo o‘sha davrdagi sersuv hududlarni ta’rif etar ekan, Buxoroda ba’zan suv tanqisligi muammosi borligi haqida ham to‘xtalib o‘tadi.

Biz Nizomiddin Shomiy, ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Rui Gonzales de Klavixo va boshqa manbalar orqali ham Zarafshon vohasi, xususan Samarqandning qishloq xo‘jaligi ekinlari, mevazorlari, poliz va don-dun ekinlari, uzumzorlari, issiqxonalari, bog‘lari, yer-suvlari va boshqa ko‘plab obod hududlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz, ammo Temuriy shahzoda Bobur Mirzoning ma’lumotlari geografik hududlarni aniqlik bilan ko‘rsatib berishi, irrigatsiya tizimlarining joylashuvi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi, agrar munosabatlari haqidagi ma’lumotlarni yana-da to‘ldirishga xizmat qiladi. Bobur Mirzo Samarqandning «Girdo-girdida yaxshi o‘langlari bor. Bir mashhur o‘lang Konigil o‘langidur. Samarqand shahridin sharq tarafidadur, bir nima shimolg‘a moyil, bir shar’iy bo‘lg‘oy. Qora suvkim, Obirahmat ham derlar. Konigilning o‘rtasidin oqar, yetti- sekkiz tegirmon suyi bo‘lg‘oy. Bu suvning atrofi tamom obgirdur. Ba’zi derlarkim, bu o‘langiing asli oti Koni obgir ekandur, vale tarixlarda tamom Konigil bitirlar , xeyle yaxshi o‘langdur. Samarqandning salotini hamisha bu o‘langni qo‘ruq qilurlar. Har yil bu o‘langga chiqib bir oy, ikki oy o‘ltururlar [2].

«Boburnoma»da Qarshi viloyati haqida to‘xtalar ekan, suvining kamroqligi, bahori juda go‘zal bo‘lishi, ekini va qovuni yaxshi bo‘lishi haqida ham ma’lumot berib o‘tgan.

Temuriylar davri o`z sardobalari bilan ham tarixda qolgan. Amir Temur davriga oid sardobalar haqida manbalarda aniq ma’lumotlar berilmagan bo‘lsa-da, lekin O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan sayyohlar asarlarida va aholi tomonidan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan rivoyatlarda ma’lumotlar bor. Rivoyatlarga ko‘ra, Amir Temur askarlariga doimo ikki yoki uch donadan g‘isht olib yurishni buyurgan. Buloq bo‘ylarida dam olganda o‘sha g‘ishtlardan sardoba qurdirib, dam olish uchun maskan hozirlar ekan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Sohibqiron Amir Temur farmoni bilan qurilgan sardobalar Sirdaryo, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida aniqlangan [3]. Amir Temur qo‘shinida miroblik ilmini yaxshi bilgan muhandis sarkarda va askarlar bo‘lib, ular qo‘shinga oldindan quduq qazib qo‘yganlar va ular qaerdan qanday suv olish sirlarini ham yaxshi bilganlar. Sardobalar kuchli suv bosimiga hamda zilzilalarga bardoshli bo‘lishi kerak edi. Koriz suvlari tunnellar orqali sardobaning suv omboriga oqib keladi. Sardobaning qalin g‘isht devorlari saqlanayotgan suvning isib ketishi va sovib ketishini oldini oladigan izolyatorlar edi.

XULOSA VA MUNOZARA

Temuriylar davrida Movarounnahrda sug‘orish, yer-suv munosabatlari, dehqonchilik kabi sohalarda katta ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bog‘dorchilik va polizchilik, g‘allachilikka alohida e’tibor qaratildi. Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligida tadbirkorlikka katta e’tibor qaratildi. Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan meva, g‘alla va boshqa mahsulotlarningasosiy qismi xorijga eksport qilindi. Boburning bizga bergan ma’lumotlaridan shuni tushunishimiz mumkinki, o‘sha davrda seleksiya, sug‘orish, hosildorlikni oshirish, yerni o‘g‘itlash borasida ham muhim ilmiy tajribalar qo‘lga kiritilgan.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Iskandarov Sh.A. O‘zbekiston arablari: an’analari va transformatsion jarayonlar T. “Yangi nashr” 2017. – B. 48
2. R.Rajabov O‘zbekistondagi arablar tarixi va etnografiyasi. T., 2012. B.132.

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

3. Султанова, С. Р., & Давлятова, Г. Н. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ВАРИАТИВНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ РИТОРИЧЕСКОЙ РЕЧИ. *" GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS*, *9*(1).
4. Sultanova, S. R., & Nematov, S. X. (2023). FEATURES OF TURGENEV HEROINES IN THE APPEARANCE OF A MODERN GIRL. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, *2*(16), 113-117.
5. Sevara, S., & Timur, A. (2021). GENERAL THEORY OF LINGUISTIC VARIATION. *Chief Editor*.
6. Sultanova, S., & Akhmadzhonov, M. (2023). THE PROBLEM OF THE «LITTLE MAN» IN RUSSIAN LITERATURE OF THE 19 CENTURE. *Science and innovation*, *2*(B2), 52-54.
7. Sevara, S., & Nigina, B. (2022). Degrees of Comparison of Adjective Names in Russian and Uzbek Languages. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *3*(10), 105-108.
8. Abdumalik o'g'li, O. R. (2021). THE BRIEF INVESTIGATION OF CONTEMPORARY SPEECH STYLES OF THE ENGLISH LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 1280-1283.
9. *University*, *5*(3), 30-40.
10. Zakirovich, G. B. (2020). Super-segment phonostylistics as the basis for studying the problems of accent variants of Russian nouns. *CREATION OF ETHNOGRAPHIES WITH POPULAR TRADITIONS*, *11*(13), 39.
11. Gafurov, B. Z. (2021). Study of advertising texts in Russian on the topic of medical terminology. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT).– Indonesia*, *26*(1), 586-590.
12. Gafurov, B. Z. (2020). ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP OF MEDICAL TERMINOLOGY WITH SEGMENT PHONOSTYLISTICS OF THE NOUN IN RUSSIAN, UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *Theoretical & Applied Science*, (1), 464-466.
13. Shodiyeva, G., & Ismatova, S. (2022). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z TURKUMLARI MASALASI. *Eurasian Journal of Academic Research*, *2*(7), 103-105.
14. Do'stnazarova S., Xasanov A.Sardoba – o'rta asrlar asl mo'jizasi // Ekologiya xabarnomasi, № 6. – Toshkent: ECO TEXTILE PRODUCT, 2020. – B. 40.
15. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya. – Toshkent: Akademiya, 2018. – B. 202.